

QOZOG'ISTONNING ISLOM MOLIYASI BORASIDAGI TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI

Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

email: zayniddinovrukhiddin@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 9

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a4

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qozog'iston tajribasi tadqiq qilinib, mamlakatda islam moliya xizmatlarini tashkil etishdagi infratuzilmani shakllantirish, islam bankchiligining tashkil etilishi, loyihalarni islamiy moliyalashtirish amaliyoti va rivojlanish yo'lidagi to'siqlar va ularni hal etishdagi yechimlar tahlil qilingan. Shuning bilan birga, bu sohaning O'zbekistonda rivojlanishida uchraydigan to'siqlarni bartaraf etilishida Qozog'istonning islam moliyasi borasidagi tajribasidan foydalansh imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

KEYWORDS

Islam moliyasi, me'yoriy-huquqiy baza, Qozog'iston, Ostona xalqaro moliya markazi, islamiy bank, O'zbekiston, investitsiya loyihalari, ISTB, XSRIK.

Kirish (Introduction/Введение)

Bugungi kunda butun dunyoda islam moliya sanoati shiddat bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo'lib, ushbu soha allaqachon global hodisaga aylanib ulgurdi hamda ko'plab davlatlar o'zlarining moliyaviy portfellarida islam moliyasini qabul qilish jarayonlarining yildan -yilda katta kengayib borayotganini ko'rsatmoqda.

Butun dunyo bo'ylab islam moliyasining zamonaviy tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin:

-birinchi bosqich 1960-yillardagi ta'sis davri;

-ikkinchi bosqich 1970-yillarda birinchi islam banki (Dubay Islom banki) tashkil etilganidan boshlab shakllanish davri;

-uchinchi bosqich esa 1990-yilden boshlab bugungi kungacha davom etayotgan rivojlanish davrini o'z ichiga oladi.

Dunyo bo'ylab islam tamoyillariga mos keladigan 600 dan ortiq islamiy bank, islamiy darchalarga ega bo'lgan 200 dan ortiq an'anaviy banklar va 1900 dan ortiq investitsiya fondlari mavjud bo'lib, mijozlarga o'z xizmat va mahsulotlarini taklif va taqdim qilib kelmoqda.

Shuningdek, islam moliya sohasiga doir O'zbekistonda ham bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimizda bu boradagi ishlar 2000-yillardan boshlanib, buni 2003-yilda Islom taraqqiyot bankiga a'zolikka qabul qilinganidan boshlab hisoblash mumkin. Bugungi kunga qadar esa jami 2,9 milliard dollardan ortiq bo'lgan 30 ta yirik investitsiya loyihalari ma'qullangan. Islom taraqqiyot bankining 46 yillik yig'ilishida O'zbekiston Respublikasida islam banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish va uni qo'llab-quvvatlash maqsadida 265 ming AQSH dollari miqdorida Islom taraqqiyot banki tomonidan texnik yordam uchun grant ajratilishi belgilandi. Buning natijasi sifatida, 2020-yil oxiriga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida islamiy moliyaviy xizmatlami joriy etish uchun huquqiy bazani ishlab chiqish vaqtiga kelganini ta'kidlagan edilar [1]. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-dekabrda "Iqtisodiyotga islamiy moliyalashtirishni joriy etish to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqishga o'd farmoyishi e'lon qilinib, islamiy moliyalashtirish tizimining huquqiy bazasini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlar boshlandi. Afsuski, ushbu qonunchilikni ishlab chiqish anchayin cho'zilib ketgani mamlakatizmizda

islom moliyasini kengayishi yo'liadgi birinchi darajali to'siq bo'lib turibdi. O'zbekistonda islam moliyasiga aholi va biznes sektori tomonidan juda yuqori talab mavjud. Shu bilan birgalikda, ushbu yo'nalishni rivojlantrish yo'lidagi tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud bo'lib, bunda ayniqa islam moliyasi bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tadqiq etish islam moliyasini rivojlantrish yo'nalishlarini belgilab olishda ayni muddao hisoblanadi.

Bugungi tadqiqot ishimizda MDH mamlakatlari orasida islam moliyasi sezilarli darajada rivojlanayotgan Qozog'iston haqida fikr yuritishni maqsad qildik. Qozog'istonning islam moliyasi sektoridagi tajribasini o'rganish hamda ushbu tajribadan O'zbekistonda islam moliyasi yo'nalishini rivojlanish yo'lida foydalanshi mumkin bo'lgan ilmiy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish ilmiy maqolamizning maqsadini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы).

Eng avvalo, islam moliyasi atamasiga e'tibor qaratishni lozim topdik, negaki, "Islam moliya tizimi" atamasini 1980-yillarning o'rталарда paydo bo'lganligi sababli ilmiy atamalar orasida nisbatan yangi tushunchadir. Lekin, shunday bo'lismiga qaramay, islam moliyasiga XXI-asrd qiziqish ancha yuqori bo'lib, ilmiy izlanishlar olib borish va tahliligi materiallar tayyorlash borasidagi ilmiy faoliyat ko'payib bormoqda [2]. Xususan, ko'plab xorijiy, MDH mamlakatlari, shu bilan birgalikda, o'zbek olimlari va tadqiqotchilari ham bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borishgan.

Xorijlik islam moliyasiga doir tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan biri Mohammed Imad Ali, Ikramur Rahman Falahi o'zlarining "Islamic banking and finance: principles and practices" nomli tadqiqot ishlarida islam moliyasi va bankchiligi shuningdek, islamiy investitsiyalar va ularning mamlakatlari iqtisodiyoti rivojidagi roli tushuntirib berishgan [3]. Bundan tashqari, GN Khaki and Bilal Ahmad Malik "Islamic Banking and Finance in Post-Soviet Central Asia with Special Reference to Kazakhstan" nomli tadqiqot ishida esa islam moliyasining MDH mamlakatlari rivojidagi o'rni hamda muhimligi, bu sohaning MDH mamlakatlari rivojlanish bosqichlari, islam banklari va an'anaviy banklar o'rtasida farqli jihatlari, Qozog'istonda islam moliyasining rivojlanish tarixi, shuningdek, islamiy moliyalashtirish vositalari haqida fikr va mulohazalarini keltirishgan [4].

MDH mamlakatlari olimlarining o'zлari ham bu sohaga doir ko'plab tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borishgan. Xususan, G.T. Gafurova "Сукук в системе исламского финансирования" nomli tadqiqot ishida islomiy moliyalashtirish vositalaridan hisoblangan islomiy qimmatli qog'ozlarning (sukuk) tarixi hamda mamlakatlar iqtisodiyotidagi muhimligi haqida yoritib bergan [5]. Shuningdek, I.A. Zaripov o'zining "Малайзия – флагман исламских финансов" tadqiqot ishida bugungi kunda islam moliya sektor taraqqiy etgan Malayziyada ushbu sektorming rivojlanish tarixi, islomiy moliyalashtirish vositalari mudorlara, mushoraka, murobaha, sukuk, islomiy lizing haqida to'liq yoritib bergan [6].

Shuning bilan birga, O'zbekistonda ham bu sohada tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar yildan yilga ko'payib, izlanishlar olib borib, ma'lum bir darajada hissa qo'shishmoqda. Xususan, G.Irgasheva "MDH mamlakatlari islam moliyasini rivojlanish istiqbollari" nomli tadqiqot ishida Markaziy Osiyo mamlakatlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonda islomiy moliya xizmatlarini tashkil etish, loyihalarni islomiy moliyalashtirish amaliyoti hamda rivojlanish yo'lidagi to'siqlar va yechimlar tadqiq qilinib, Markaziy Osiyoda islam moliyasi bo'yicha eng salohiyatlari mamlakat bo'lgan Qozog'iston tajribasini O'zbekistonda taqbiq qilish yo'naliш va imkoniyatlari ko'rib chiqilgan hamda muallif o'zining xulosa va tavsiyalarini ishlab chiqqan [7].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalananligan usullar (Methods/Metodы).

Mazkur tadqiqot ishimizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishini amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, iqtisodiy-statistik, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan ham samarali foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/ Анализ).

Qozog'istonda islam moliyasining tashkil etish yo'lidagi harakatlar 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanib, mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng boshlangan bo'lib, ushbu soha doirasidagi dastlabki qadamlar 1995-yil noyabr oyida Qozog'istonning Islom taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishi va 1998-yilda Olmaota shahrida Islom taraqqiyot banking mintaqaviy vakolatxonasini tashkil etish orqali islam moliyasi bo'yicha amaliyot boshlandi. Islom taraqqiyot banking mintaqaviy vakolatxonasi Olmaota shahrida tashkil etilishi, mintaqada islam bank ishi va moliyasi faollashishiga, hukumat organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritishga, sarmoyadorlar islam banklari, lizing va takofil kompaniyalarini ochishlariga sabab bo'ldi.

Qozog'istonda islam moliyasi rivojlantirish bo'yicha muhim choradatbirlar 2000-yil oxirida boshlangan. Islomiy moliyalashtirish to'g'risidagi birinchи "Qozog'iston Respublikasining islomiy banklar va moliyalashtirish tashkilotlari faoliyati hamda ularni tashkil etish masalalari bo'yicha ayrim qonunchilik hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonun Parlament tomonidan 2009-yilning fevral oyida qabul qilindi va mamlakat Prezidenti tomonidan tasdiqlandi [8]. Ushbu qonunning qabul qilinishi natijasida bir qator qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, "Qozog'iston Respublikasida banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (islam banklari faoliyati huquqiy hamda nazorat asosini ishlab chiqish maqsadida), "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunga islomiy ijara sertifikat (sukuk)lari hamda ulushli islomiy sertifikatlarini chiqarishga ruxsat berish uchun va "Investitsiya jamg'armalari to'g'risida"gi qonunlarga (islomiy investitsiya fondlarini tashkil etish imkoniyatlarini nazarda tutgan holda) asosiy o'zgartirishlar kiritildi.

Bundan tashqari, Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga kiruvchi Xalqaro islam savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) va Xususiy sektorini rivojlantirish islam korporatsiyasi (XSRIK) kabi tashkilotlar mintaqadagi yangi sanoatni qo'llab-quvvatladilar. Islomiy moliyalashtirish usullarini tadbiq etishning dastlabki tajribasi Qozog'istonda 2003-yilda amalga oshdi, o'sha vaqtida murobaha mexanizmiga asoslangan shariat talablariga muvofiq keluvchi moliyalashtirishni Qozog'istonga "Bank Turan Alem (BTA Bank)" jalb etgan edi. Umumiylis hisobda bank tomonidan 250 million AQSH dollar miqdorida mablag' olishga muvaffaq bo'lindi [9].

Shundan keyin, Qozog'istonda islomiy bank ochish bo'yicha harakatlar boshlanib, buning natijasi sifatida 2009-yilning 11-iyunidagi "Qozog'iston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari hukumatini o'rtaida Qozog'iston Respublikasida islomiy bank ochish to'g'risidagi kelishuv"ga asosan, 2010-yilning 17-martida "Al-Hilo" bankiga (BAAdagi shu banking sho'ba tarkibi sifatida) islomiy bank sifatida bank

amaliyotlari o'tkazishga ruxsatnomalar berildi. Al Hilo Bank Public Joint Stock Company (Abu Dabi, BAA) bankning 100% aktsiyalariga egalik qiladi [9]. Shu tarqa, 2010-yilda Qozog'iston va butun Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mintaqasida birinchи islomiy bank sifatida Al Hilo islom banki tashkil etildi. 2022-yilda bank aktivlari 60,315 milliard tenge (134 million dollar)ni tashkil etib, Olmaota, Ostona va Chimkent shaharlari bank filiallari ochildi. Bank o'z mijozlariga moliyalashtirishning korporativ murobaha (Corporate Murabaha Facility), tovar murobahasi (Commodity Murabaha Facility), ijara kabi vositalarni taklif qilib kelmoqda.

1-jadval


Qozog'istondagi islomiy moliya institutlari ro'yxati [10]			
Nº	Nomi	Tavsiyi	Joylashuvi
1	Al Hilo Bank	To'liq islomiy bank	Olmaota shahri
2	Zamon Bank	To'liq islomiy bank	Olmaota shahri
3	Tayyab	Raqamli bank	Olmaota shahri
4	Qozog'iston ijara kompaniyasi	Islomiy lizing kompaniyasi	Olmaota shahri
5	Islom o'zaro sug'urta kompaniyasi	Islomiy sug'urta kompaniyasi	-
6	Al saqr moliva	Ko'p funksiyali islomiy moliya kompaniyasi	Olmaota shahri

Qozog'istondagi ikkinchi islam banki "Zamon islam banki" (Zamon Islamic bank) o'z faoliyatini 2017-yilda an'anaviy bank litsenziyasini islam banki litsenziyasiga yangilagandan so'ng boshladi. Zamon islam banki 2021-yilda 23,651 milliard tenge (52 million dollar) aktivlariga ega bo'lib, uning filiallari korporativ va jismoniy shaxslarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun Olmaota, Ostona va Ekibastuz shaharlarda faoliyat yuritib kelmoqda [11].

Qozog'istonda islomiy sug'urta (takoful) borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilib, jumladan, 2010-yilda Olmaota shahrida birinchи islomiy sug'urta kompaniya "Takoful" (OBC Takoful) tashkil etilib, 2011-yilda esa mamlakatda yangi mahsulot-ixtiyoriy tibbiy sug'urta mashrusi tashkil etildi. OBC Takoful o'z mijozlariga ko'plab sug'urta mahsulotlarini taklif etmoqda. Xususan, xaj va umra safarlariga ya'nini muqaddas joylami ziyyarat qiluvchi fuqarolami, xorijiy mamlakatlarga turli maqsadlarda (xususan, o'qish, ish, sayohatga) ketayotgan fuqarolarni ixтиyoriy sug'urta tashashdan iborat.

Bundan tashqari, mamlakatda boshqa lizing, islomiy sug'urta, va moliya kompaniyalarini jumladan, "Kazakhstan Ijara Company" va "Al Saqr Finance" ham faoliyat yuritib kelmoqda. Mamlakatda islam banklari faoliyatini Qozog'iston Milliy banki va Moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirish agentligi tartibga soladi. Ushbu tartibga soluvchi organlardan tashqari, Qozog'istonda Sharif Kengashi har bir islam bankida mustaqil nazorat qiluvchi organ hisoblanib, bank faoliyatining islam shariat qoidalariiga muvofiqligini ta'minlaydi.

Qozog'iston Respublikasi Moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirish agentligi (ARDFM) ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yil mart oyi holatiga ko'ra, Qozog'istonda jami bank aktivlari qiymati 36,73 trillion tenge (69,9 milliard AQSH dollar)ni, islam banklarining ulushi esa jami aktivlar hajmida 55,5 mlrd. tengani tashkil etgani holda mamlakatdagi jami bank aktivlarining 0,2 foizini tashkil etgan [12]. Islam banklari tomonidan moliyalashtiriladigan asosiy iqtisodiy faoliyat ulgurji va chakana savdo, qurilish, transport va saqlash, elektr energiyasi, gaz, bug' va havoni tozalash, konchilik va ko'chmas mulk faoliyatidir [13].



1-rasm. Ayrim mamlakatlarda islam banklari tomonidan islomiy moliyalashtirish mahsulotlarining taqsimlanishi (foiz, 2021 yil) [14]

Islam banklari tomonidan moliyalashtirish va g'aznachilik amaliyotlari korporativ murobaha sektorining moliyaviy mahsulotlar jihatidan mamlakatlar o'rtaida sezilarli tafovutlar bo'lsa-da, ko'plab mamlakatlar asosan murobaha va tavarruq kabi moliyaviy mahsulotlarga ko'proq

e'tibor qaratishlari kuzatilmoqda, negaki bu vositalar boshqalariga nisbatan kamroq xatara ega bo'ladi (1 -rasm).

Xatarlarni taqsimlashga asoslangan mahsulotlardan foydalanish esa cheklanganligicha qolmoqda. Xususan, Qozog'istonda 90 foizga yaqin islomiy moliyalashtirishda tavarruq mahsulotidan foydalanilgan bo'sha, qolgan qismi esa ijara mahsuloti hissasiga to'g'ri keladi.

Qozog'istoning ichki va mintaqaviy islomiy moliya bozori 2018-yilda Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) ishga tushirilgandan so'ng tezlashdi. Ostona xalqaro moliya markazi islomiy moliya sektorida talim sohasiga doir muhim qadamlar qo'ydi. Qozog'istoning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan Islom moliyasi bosh rejasি doirasida Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) besh yil davomida yanada xilma-xil va innovation islam moliya sanoatini rivojlantirish bo'yicha ba'zi muhim tashabbus va tavsiyalarni belgilab berdi. Ushbu besh yillik bosh rejaning maqsadi 2025-yilga barib mamlakatning islam banki aktivlarini 1 foizdan 3 foizgacha oshirishga erishishdan iboratdir.

Shuningdek, Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) Qozog'istoning islomiy moliya sanoati uchun "Islom banki va moliyaviy mahsulotlari bo'yicha yo'rqnoma" va "Sukuk yo'rqnomasи"ni o'z ichiga olgan birinchi qo'llanmalmami taqdim etdi. 2020-yil mart oyida Ostona xalqaro moliya markazi fond birjasi (AIX) birinchi marta Qatar xalqaro islam banki tomonidan chiqarilgan shariatga mos sukukni ro'yxatga oldi. 2022-yilda AIX o'zining IX Islamic ETNs deb nomlangan birinchi shariatga mos Exchange Traded Notes-ni taqdim etdi. O'sha yilning oxirida AIX Islom tarraqqiyot bankining 1 milliard dollarlik yashil sukuk, 1,5 milliard dollarlik barqaror rivojlanish maqsadlari sohasidagi sukuk va 2 milliard dollarlik an'anaviy sukuklarni besh yillik muddatga ega bo'lgan uchta sukuk emissiyasining kross-listingini e'lon qildi [15].

Shuning bilan birligida, Qozog'istonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan imtiyozli moliyalashtirish loyihalari ham amalga oshirilib, "Damu" tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. 2020-yilda hukumat Al Hilal Bank Limited bilan 10 milliard tengega (24 million dollar) va Kazakhstan Ijara Company Limited bilan 3 milliard tengega (7 million dollar) islomiy moliyalashtirishning murobaha va ijara mahsulotlari orqali kichik va o'rta biznesni imtiyozli shartlarda moliyalashtirish uchun shartnomalar tuzdi. "Damu" jamg'armasi yaqinda islomiy moliyalashtirish orqali keramik granit ishlab chiqaruvchi ZERDE-Keramika Aktobe kompaniyasini qo'llab-quvvatladi [16].

Qozog'istoning mamlakatda mustahkam islam moliya sanoatini rivojlantirish bo'yicha yana birtashhabbusining dalili sifatida buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti tomonidan Islom moliya institutlari uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining umumiy tamoyillari va asoslariga mos keladigan standartlarini ishlab chiqishidir. Bu standartlar islamiy moliya operatsiyalari bo'yicha maxsus balans hisobvaraqlari rejasiga qo'shimchalar hamda islam banklari tomonidan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlami tuzish bo'yicha yo'rqnomalami o'z ichiga oladi.

2021-yilgi ISD-Refinitivga ko'ra, Qozog'istonda islam moliyasining rivojlanish ko'rsatkichi ancha yuqori bo'lib, umumiy 17,55 ball ya'ni global o'rtacha ko'rsatkichdan oshganligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, 2023-yilgi Global islomiy moliya hisoboti bo'yicha islomiy moliya mamlakatlari indeksida Qozog'iston 22-o'rinni egalladi. Bu o'sish Qozog'istoning islam moliya sanoatida mintaqaviy yetakchi o'rinda ekanligini belgilab berdi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarни keltirib o'tamiz: islomiy moliya sohasi iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan yangi bo'lishiga qaramasdan, ko'plab mamlakatlarda ushbu soha o'zining ishonchiligi va chidamliligi ko'ra qiziqish bildirilib, sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Xususan, O'zbekistonda ham ushbu sohaga nisbatan aholi hamda biznes sektori vakillar orasida qiziqish juda yuqori, negaki, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ko'p aholiga ega davlat

bo'lib, doimiy aholisi 2024-yil 16-aprel holatiga ko'ra 36,990,058 kishini tashkil etdi [17]. Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakat aholisining aksariyati musulmonlar bo'lib, 90 foizdan 96 foizgacha o'zgarib turadi [18]. O'zbekiston mintaqadagi eng ko'p musulmon aholiga ega bo'lishiga qaramay, islom banki va moliyaviy mamlakatga joriy etish hamda ushbu sohani mamlakatda rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarini Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga qaraganda anche kechroq boshlagan. O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishga doir ishlar asosan, Islom taraqqiyot banki guruhi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu xalqaro moliya instituti O'zbekistonagi o'z faoliyatida murobaha islomiy moliyaviy instrumentidan foydalaniib, mamlakatdagi turli sohalarining rivoji uchun mablag'lar ajratdi.

O'zbekistonda haligacha islomiy moliya institutlarini tashkil etish uchun huquqiy asoslar mavjud bo'lmasa ham, ba'zi tijorat banklari, takoful kompaniyalari va islam savdosini moliyalashtiruvchi kompaniyalarda islam bankini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'plab tashabbus va urinishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2024-yilning 18-mayida bo'lib o'tgan Senat yalpi majlisida "O'zbekiston-2030" strategiyasida Respublikada islam moliyaviyining qonuniy asoslarini shakllantrish hamda tartiblarini joriy etish belgilangani aytib o'tildi. Shuningdek, Markaziy bank raisi o'rinsbosari Behzod Hamrayev "Islom moliyasini yo'lga qo'yish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, hujjatni 2024-yilning yakunigacha parlament muhokamasiga kiritish rejalashtirilgan. Shuni ta'kidlash joiziki, islam moliyasi yangi va murakkab soha bo'lgani uchun qonunchilikka juda ko'p o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Masalan, garov, ssuda yo'nalishlarida, "Markaziy bank to'g'risi" dagi qonunlardan tortib "Banklar faoliyati to'g'risida" gi qonun va boshqa hujjatlarga o'zgartirish kiritish kerak. Hozir ushbu qonun loyihasi tayyor. Joriy yilda parlament muhokamasiga kiritish asosiy vazifalarimizdan biri" – deb ta'kidladi [19].

Biz Qozog'istonda islam moliyaviyining rivojlanishiga oid tadqiqot ishimizni olib borish natijasida O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalami ishlab chiqdik:

1. Eng avvalo, O'zbekistonda islam moliyaviyining rivojlanishida qonunchilik tizimida zaruriy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi yoki islam moliyasi uchun maxsus bir qonunchilik ishlab chiqishidan birini tanlashi lozim. Ikkinchisi ko'p vaqt talab etishi nuqtai nazaridan, birinchi yo'nalishda ish olib borish hozirgi vaziyatda ma'qul hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzurida mazkur soha uchun mas'ul maxsus departamenti tashkil etish, tegishli infratuzilmani shakllantrish, qoidalari va ko'rsatmalarini ishlab chiqish, havfsizlik standartlari jumladan, minimal kapital talabini ratsionalatsiya qilish (MCR), likvidlikni boshqarish asoslarini va moliyaviy hisobot bo'yicha qo'llanma ishlab chiqish, AAOIFI shariat standartlarini qabul qilish, keng qamrovli shariat boshqaruv tizimini tashkil etish, mahsulotlami standartlashtirish va uyg'unlashtirish, g'aznachilik faoliyati bo'yicha ko'rsatmalar/IMI mahsulotlarini qabul qilish kerak bo'ladi.

3. Aholi hamda biznes vakillari orasida islam moliyaviy borasida xabardorlik darajasini oshirish, buning uchun esa bu sohada tadqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash, universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy xodimlarini islam moliyasi va bank ishi sohasida tadqiqot olib borishlarini rag'batlantirish darkor. Shuningdek, islam moliyaviyining doir turli ommaviy axborot vositalarida ommaviy nutqlar, seminarlar, konferensiylar, maqolalar va dasturlar orqali bilimlarni tarqatishning turli vositalari bilan aholining islam moliyaviy to'g'risidagi xabardorligini oshirib borish talab etiladi.

4. Kadrlar tayyorlash siyosatiga e'tibor qaratish, ushbu soha bo'yicha kadrlar tayyorlashni salmog'ini oshirishda olyi o'quv yurtlari sonini hozirgi ikkitadan oshirish, shuningdek, bakalavr va magistratura dasturlari sonini oshirish kerak.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev, 'President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis' (President of the Republic of Uzbekistan, 29 December 2020) accessed 31 March 2023.
2. Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li, "O'zbekistonda islam moliyaviyining rivojlanishi: to'siqlar va tavsiyalar", "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, 2022-yil 2-son mart-april (№00058).
3. Mohammed Imad Ali, Ikramur Rahman Falahi. Islamic banking and finance: principles and practices // Marifa Academy Private Limited, 2014. 242 p.;

4. GN Khaki and Bilal Ahmad Malik, 'Islamic Banking and Finance in Post-Soviet Central Asia with Special Reference to Kazakhstan' (2014) 4(2) International Journal of Excellence in Islamic Banking and Finance 1, doi:10.12816/0010779.
5. Гафурова Г.Т. Сукуп в системе исламского финансирования //Вестник АГТУ. Экономика. 2011. №2. с. 90-94;
6. Зарипов И.А. Малайзия – флагман исламских финансов // Вестник финансового университета. 2016. №4. с. 118-129;
7. G.Irgasheva "MDH mamlakatlarida islam moliyasini rivojlanish istiqbollarlari", "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jumali, 2023-yil avgust, 8-son, 364-368-bet, <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
8. Baydaulet, E.A., (2019), Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Baydaulet. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, – 432 b.
9. Bekkin, R.I., (2019), Islomi iqtisodiy modeli vazamon [Matn]– Toshkent, "O'zbekiston", NMIU: -360 b.
10. Alam Asadov; Bahodir Nurmukhamedov Development of islamic finance in CIS countries: in the example of Uzbekstan. Translations and Authoring Center Prince Sultan University Riyadh, Saudi Arabia, 2023. 248 pages. ISBN: 978-603-8427-00-2
11. <https://astanatimes.com/2023/08/islamic-finance-market-in-kazakhstan-opens-new-investment-opportunities/>
12. Islamic Finance Master Plan for the Republic of Kazakhstan 2030-2035 Nur-Sultan, p: 156.
13. Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li, "Markaziy Osiyo mamlakatlarida islam moliyasini rivojlanish istiqbollarlari", "Global jarayonlar va ularning Markaziy Osiyoga ta'siri" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanı. – Toshkent, JIDU, 2022.
14. Islamic Financial Services Board. (August 29, 2022).
15. <https://eurobak.kz/islamic-finance-in-kazakhstan/>
16. <https://astanatimes.com/2023/08/islamic-finance-market-in-kazakhstan-opens-new-investment-opportunities/>
17. [https://www.google.com/search statistics agency, 'permanent population' \(statistics agency under the president of the rep ublic of uzbekistan, 2024\) accessed 16 april 2024](https://www.google.com/search?hl=en&q=permanent+population+statistics+agency)
18. United States department of state, '2021 report on international religious freedom: Uzbekistan' (us department of state, 2 june 2022), <https://www.state.gov/reports/2021-report-on-international-religious-freedom/uzbekistan> accessed 31 march 2023.
19. <https://islom.uz/maqola/22187>
20. Baratova , D. ., & Yo'ldoshova , A. (2024). O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI . Страховой рынок Узбекистана, 1(8), 5–7. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/141..>